

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

**TOJIBAYEVA XONZODAXON DILSHODBEK QIZI**

**“Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o`qitishda innovatsion pedagogik  
texnologiyalardan foydalanish**

5140600- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi M.Atajonov**

**Andijon - 2017**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I.BOB.“JAHONNING SIYOSIY KARTASI” MAVZUSINI O`QITISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
1.1. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o`rganishning an`anaviy usul va vositalari.....	7
1.2. Ta`limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	12
<b>II.BOB.“JAHONNING SIYOSIY KARTASI” MAVZUSINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....</b>	<b>22</b>
2.1. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusi bo`yicha dars ishlanmasi.....	22
2.2. Ta`limning interfaol metodlari.....	37
2.3. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusi yuzasidan keys-stadi.....	40
<b>XULOSA.....</b>	<b>56</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>58</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda ta'lim-tarbiya tizimiga, oliy ta'limning o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini olib kirish orqali uning sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, ta'lim samaradorligini ortirish talab etilmoqda.

Bu masalada «...bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu boradagi imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi doimo e'tiborimiz markazida turishi lozim»<sup>1</sup>ligi ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun «Yangi pedagogik texnologiyalar tizimidan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirish»ga erishish zarur, deb qayta-qayta ta'kidlangan.

Shu boisdan ham barcha turdagi ta'lim muassasalari o'qituvchi-pedagoglari pedagogik texnologiya metodlarini o'rganib olishlari va ta'lim sifatini va kadrlar tayyorlash saviyasini oshirish uchun ularni amalda qo'llashni egallashlari zarur.

Mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash talabi ta'lim tizimi oldiga bilim olishning zamonaviy samarali vositalarini joriy etishdan iborat yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalar bosqichma-bosqich, islohotlar yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari, zamonaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish bo'yicha N.N.Azizxodjaeva, Yu.K. Babanskiy, R.J. Ishmuhamedov, J.G'.Yo'ldoshev, M.V.Klarin, N.Sayidaxmedov, M.Tojiyev, D.Tojiboyeva, O'.Tolipov, J.O.Tolipova, B.L.Farberman va boshqalar; geografiya darslarida didaktik materiallardan, ta'limning texnika vositalaridan va kompyuter texnologiyalaridan

---

<sup>1</sup>// Xalq so'zi. –2001 yil 24 may. №101 (2623) –B. 1.

foydalanish bo'yicha xorij va respublikamiz olimlaridan N.N.Baranskiy, A.V.Darinskiy, V.A.Juchkevich, P.Baratov, O.Mo'minov, L.M.Pancheshnikova, U.Safarov, R.Qurbonniyozov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida geografiya fanini o'qitishni takomillashtirish, bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha qator ilmiy ishlar qilingan bo'lsada, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish masalasi hanuz dolzarb muammo bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947 farmonida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash"ga e'tibor berilgan.<sup>2</sup> Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda talaba-yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori bilimga ega bo'lgan iqtidorli yoshlar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda. O'zbekistonda bu borada so'nggi yillarda anchagina diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida to'rgan ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim,

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947 farmoni

ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lish lozim.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr — muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga: ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan hududiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash; kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy—iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan jamiyat ehtiyojlaridan, fan madaniyat texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish; ta'lim oluvchilarni ma'naviy—ahloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, uni o'qitish yuzasidan samarali dars ishlanmasini shakllantirish hamda o'qitishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadidan kelib chiqib xolda **quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- ❖ “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o'qitishda ta'lim texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llarini yoritish;
- ❖ “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o'rganishning maqsad, vazifalari va o'rganish metodikasi mazmun mohiyatini ochib berish;
- ❖ “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o'qitishda amaliy ko'nikma, malakalarni va dunyoqarashini shakllantirish;
- ❖ “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o'rganishda noan'anaviy metodlarni

tashkil etishning samarali usul va vositalari belgilash;

- ❖ Bilimlarni shakllantirishning samarali, mukammal texnologiyalari loyihalarini ishlab chiqish va o'quv jarayonida qo'llay olish;
- ❖ mazkur ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish, natijalarni statistik tahlil qilish.
- ❖ Umumta'lim maktablarida "Jahonning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti** sifatida umumta'lim maktablari 9-sinf Geografiya fani "Jahonning siyosiy kartasi" mavzusi bo'yicha nazariy masalalar va tashkiliy xarakterga ega bo'lgan o'quv-me'yoriy xujjatlarni o'rganish tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** esa ta'lim muasasalarida "Jahonning siyosiy kartasi" mavzusining mazmun mohiyatini o'rganish hamda uni o'qitishda noan'anaviy metodlarni qo'llashning samarali usul va vositalari belgilash hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati** tadqiqot natijasida olingan xulosalar "Jahonning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitishning samarali strategiya va metodlarni tavsiya etish bo'yicha metodik ko'rsatma ishlab chiqish uchun amaliy dastur bo'lishi bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 14 nomli adabiyotlar va manbadan foydalanilgan. Ishning hajmi 59 betni tashkil etadi.

# **I. “JAHONNING SIYOSIY KARTASI” MAVZUSINI O`QITISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusini o`rganishning an`anaviy usul va vositalari**

Umumiy ta`limning geografiya fanlari orasida 9-sinf geografiya fani o`quvchilarni jahon mamlakatlari bilan tanishtiruvchi kurs hisoblanadi. Kurs asosini bir necha umumiy tushunchalar tashkil qiladi. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: Dunyo siyosiy kartasi haqidagi tushunchalar. Bular: “Suveren davlat”, “Davlat hududi”, "Davlat chegarasi", "Unitar davlat", "Federativ davlat", "Mamlakatlar guruhi”, “Hozirgi zamon siyosiy kartasi”, “Geosiyosiy jarayonlar” va x.k.

Fanni o`rganish jarayonida o`quvchilarda mamlakatlar haqidagi umumiy tushuncha shakllanadi va sekin-asta ularda mamlakatlarga siyosiy geografik tavsif berish ko`nikmasi takomillashib boradi.

"Jahonning xozirgi siyosiy kartasi", "Xalqaro munosabatlarning dunyo siyosiy kartasiga ta`siri", "Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi" tushunchalarini o`rganishda egallangan nazariy materiallar, Jahonning ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasini o`rganishning asosiy obektlaridan biri mamlakatlar hisoblanadi. Chunki siyosat va iqtisod bir-biri bilan uzviy bog`liq jarayonlar hisoblanadi. Mamlakatlar iqtisodiy tuzumi va ularni rivojlantirish omillari haqida gapirilganda atbatta uning siyosiy ahamiyati haqida ham to`xtalish maqsadga muvofiq. Kursni o`rganish maqsadlarida siyosiy geografik elementlarining ham ishtirok qilishi o`quvchilarni siyosiy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Jahonning siyosiy geografiyasi mazmuni dunyoda ro`y berayotgan voqealar bilan chambarchas bog`liq. Bu materiallar darslikdagi materialni to`ldirishda ayrim xollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi. Eng muhimi darsda kundalik matbuot materiallaridan foydalanish o`quvchilarining siyosiy ongi va dunyoqarashini

shakllantirishda cheksiz ahamiyatga ega.

Bu fan uchun umumlashtiruvchi bilimlar katta ahamiyatga ega. Mavzudagi aksariyat bilimlar bevosita O'zbekiston iqtisodiy geografiyasida egallangan bilim, ko'nikmalar bilan bog'liq. Masalan: O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy mamlakatlarning rolini yoritish? yoki O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy aloqalaridagi asosiy shakllar nimalardan iboratligini bilish har ikki kursning uzviy bog'langanligini bildiradi.

Mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilarda mamlakat haqidagi umumiy tushuncha shakllanadi va sekin asta ularda mamlakatlarga siyosiy geografik tavsif berish ko'nikmasi takomillashib boradi. Mamlakatlarga tavsif berishda o'quvchilar siyosiy kartalarni o'qish va ulardagi mavjud bilimlarni o'la bilish ko'nikmalariga tayanadilar. Ular statistik ma'lumotlardan jahon mamlakatlariga oid bilimlarni o'la bilish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Ular yirik tayanch guruhidagi mamlakatlar va bir muncha kichikroq, ammo rivojlangan tayanch guruhidagi mamlakatlar o'rganilish tarzida amalga oshiriladi. Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakani shakllanishlari bilan chambarchas bog'liq. O'quv ishlari uslubiyatini bilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilg'or geografiya o'qituvchilar va metodist o'qituvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmun jihatdan amas, balki bajarish murakkabligi bo'yicha ham farq qiladi. Har bir geografik ko'nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko'nikma va malakalar bir paytning o'zida shakllantiriladi. Chunki amaliy topshiriqlarni bajarishda ularning ayrimlari ongli ravishda, ba'zilari bevosita, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Geografik ko'nikma va malakalar ko'p hollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko'rsatyaptiki, qayerda o'quvchilarda karta bilan ishlash ko'nikmasi shakllantirilsa ularning javoblari ham karta bilan bog'langan bo'ladi. Karta bilan ishlash ko'nikmasini egallay olmagan o'quvchilardagi bilim quruq, o'qituvchi bayoni yoki kitobdan o'qiganlarning



takrordan iborat bo'lib qoladi. Geografik kartalarni o'qiy olishga o'rgatilgan o'quvchilardagi harakat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'quvchilarda ko'nikma va malakalar hosil qilishda mashqlar tizimi katta ahamiyat kasb etadi. Mashqlar yordamida ko'nikma hosil qilishda o'qituvchi ularni bajarish yo'llarini ko'rsatadi.

Siyosiy kartalarni o'qish ko'nikmasini shakllantirishda o'quvchilar siyosiy-geografik o'rin tushunchasini qiyinchilik bilan egallaydilar. Bu borada bir necha mashqlarni muntazam ravishda bajarish kartani o'qishni osonlashtiradi. Jamiyatning siyosiy tuzumi, tabiiy sharoit, mamlakat yoki rayon iqtisodiyotini belgilashda katta rol o'ynaydi. Shu tufayli ham siyosiy geografiyadan nazariy tayyorgarliksiz o'quvchilar u yoki bu ob'yektning siyosiy-geografik tavsifini tuzishda qiynaladilar. Kartani o'qish borasidagi ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda to'g'ri shakllantirish maktabni tugatgandan keyin ham ularning tabiiy, iqtisodiy va siyosiy kartalardan qiynalmay mo'ljal ola bilishini ta'minlaydi. "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusida o'qituvchi darslarni o'tishda metod tanlashga alohida e'tibor berishi zarur. Kuzatuv va tajribalar shuni ko'rsatadiki, mavzu mazmunan boy materiallarga egaligini e'tiborga olib unda xilma-xil metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Bu mavzuda mashhur didaktik olimlar I.Ya. Lerner va M.N.Skatkinlarning klassifikatsiyasini qo'llash yaxshi natijalar beradi. Ular quyidagi metodlar guruhini ilgari suradilar:

1. Izohli ilyustrativ (ko'rgazmali) metod. (hikoya, leksiya, tushuntirish, darslik bilan ishlash, rasmlarni namoyish qilish, kino vadiafilmlar, slaydlar namoyish etish)

2. Reproduktiv metodlar (o'tilgan materiallarni xayolan qayta tiklash asosida bilimlarni amalda qo'llash orqali ko'nikma va malakalar shakllantirish).

3. Dars materiallarini muammoli bayon etish.

4. Qisman izlanuvchan yoki evristik metod.

5. Tadqiqot metodi. (Bunda o'quvchilar faoliyati bilimlarni ko'proq mustaqil izlanish asosida amalga oshiriladi.)

Geografiyafanida eng ko'p qo'llaniladigan metodlar guruhini izohli-illyustrativ metodlar tashkil qiladi. Bu metodning asosini o'qituvchi faoliyati tashkil qiladi. O'qituvchi asosan tayyor axborotlarni beruvchi hisoblanadi. Bunda u turli ta'lim vositalaridan foydalanadi. O'quvchilarga axborot asosan lektsiya, hikoya, suhbat, savol-javob tarzida yetkaziladi. Mavzu, ko'rgazmali qo'llanmalar o'qituvchi jonli so'zni to'ldiruvchi: vositalar bo'lib xizmat qiladi. Bu metodning eng afzal tomoni shundaki, o'quvchilar bir yo'la tinglaydilar, ko'radilar, kuzatadilar, o'qiydilar, xilma-xil ma'lumotni qiyoslaydilar va h.k. Mazkur metod pedagogik, didaktik, metodik adabiotlarda keng va atroflicha yoritilgan. Izohli-illyustrativ metodka yetakchi o'rinni darslik matni, kartografik metodlar bilan ishlash tashkil qiladi. Ma'lumki jahon siyosiy geografiyasining asosini kartografik materiallar bilan ishlash va ularni tahlil qilish bilan bog'liq mavzular tashkil etadi. "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusining aksariyat materiallar lektsiya metodida olib boriladi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu mavzularni o'rganishda suhbatning alohida o'rni bor. Ayniqsa darslik matni, undagi jadvallar, raqamli materiallar, kartosxemalar va boshqa ko'rgazmali materiallar bilan ishlashda uning o'rni katta.

Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari barcha o'quv fanlarida bilimlarni tekshirishni asosiy usuli bo'lib qoldi ayniqsa XX-asrning 90-yillaridan boshlab kirish imtixonlarida keng qo'llanila boshlandi.

Testlar qamroviga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Kursning ayrim mavzulariga, bo'limlariga bo'lingan testlar masalaning mohiyatini chuqur ochib beradi, mavzular juda chuqur va aniq yoritiladi. Ko'p javobli testlar tuziilayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim: Javoblar eng kamida 3 ta bo'lishi kerak, javoblar qancha ko'p bo'lsa, tasodifiy baholar soni shuncha kam bo'ladi, odatda hozirgi paytda 4 ta javobli testlar keng tarqalgan.

Dunyo siyosiy kartasida davlatlar joylashishi va rivojlanishiga ko'ra xilma-xilligi tufayli bir-biridan keskin farq qiladi. O'quvchilar kuzatish jarayonida kartadagi zarur belgilarga yetarlicha e'tibor bera olishlari zarur. Kartani o'qish

murakkab psixologik jarayon bo'lib, uni o'qishni ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qism – kartani tushuntirishni o'rganish, ikkinchi qism – kartani mazmunini o'rganish. Kartani o'qish deganda avval idrok qilingan narsa va hodisalarning tasvirini shartli belgilar asosida ongimizda aks etilishidir. Kartani o'qish borasidagi ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda to'g'ri shakllantirish o'quv yurtini tugatgandan keyin ham ularning tabiiy, iqtisodiy va siyosiy kartalardan qiynalмай mo'ljal ola bilishni ta'minlaydi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, agar dars jarayonida yuqoridagi elementlardan birontasi tushib qolsa, dars sifati ko'ngiddagidek bo'lmaydi. Shu tufayli ham darslarni zamonaviy usullarda tashkil etilganda yuqoridagi elementlar albatta saqlanishi maqsadga muvofiq. Geografiyaning eng muhim xususiyati shundaki, barcha sinflardagi o'quv predmetlari mazmuni nazariy va amaliy tarzdagi bilimlar bilan to'ldirib tashlangan. Ammo bunday katta hajmdagi bilimlarni o'rganishga ajratilgan vaqt deyarli yetmaydi. Shu tufayli ham geografiya darslarida yuqoridagi elementlarning barchasi qatnashadi. Bu darsni rejalashtirishda aralash tipdagi darsdan unumli foydalanish taqozo etiladi, maqsad va mazmunga mos bo'lgan ta'lim metodlarini tanlash. Masalan, agar dars ob'yektiv murakkablikka ega bo'lgan nazariy savollardan iborat bo'lgan yangi materialni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, o'qituvchi hikoya yoki ma'ruzani qo'llagani ma'qul. Bu yerda albatta asosiy savollar mustahkamlanishi kerak.

Ta'limda faol metodlarni qo'llash dars shakllari mutloq o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchi materialni bayon qilishda, o'quvchilar, bilimlarini tekshirishda, ayniqsa, faol metoddan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan dars suhbat, dars konferentsiya, har xil vazifali o'yinlar, shuningdek, noan'anaviy darslar o'quvchilarni darsga tayyorlashda, darsning ayrim bosqichlarida o'qituvchining o'rnini bosa olish imkoniyatlarini yaratadi. Noan'anaviy darslar o'quvchilarni nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, balki ularni ijodiy izlanishga, bu tajribalarni boshqa o'quvchilarga berish yo'llarini o'rgatadi.

Keyingi paytlarda geografiya ta'limida o'qitishning zamonaviy metod va shakllari keng qo'llanilmoqda. Chet el tajribalaridan unumli foydalanish bo'yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Ilg'or o'qituvchilar, metodistlar darsning zamonaviy shakllarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar uyushtirmoqdalar. Darsning har bir shakli o'quvchilarga ma'lum bilim ko'nikmalar tuzimini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik tajriba asosidagi bir qancha usullar bo'lib, ularning ko'plari ilg'or (yangi) pedagogik texnologiya asosida interfaol usullar sifatida qabul qilingan.

## 1.2. Ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

### O'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi

O'QUV MASHG'ULOTLARI TEXNOLOGIYASI	INTERFAOL METODLAR	GRAFIK ORGANAYZERLAR
1. Ma'ruzamashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.	1. Aqliy hujum.	1. Klaster.
2. Seminar mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.	2. Erkin yozish.	2. B-B-B chizmasi
3. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasi.	3. Asoslangan esse.	3. T-chizma.
4. Mustaqil ta'lim texnologiyasi.	4. FSMU.	4. Venn diagrammasi.
5. Keys-stadi ta'lim texnologiyasi.	5. Blits-so'rov.	5. Konseptual jadval.
6. Loyixa ta'lim texnologiyasi	6. Blits-o'yin.	6. Insert jadvali.
	7. O'qitish bo'yicha qo'llanma.	7. "Nima uchun" chizmasi
	8. Yozma va og'zaki davra suhbat.	8. "Qanday?" diagrammasi
	9. Tushunchalarni aniqlash.	9. Baliq skeleti.
	10. Tushunchalar asosida matn tuzish.	10. Toifalash jadvali.
	11. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	11. Nilufar guli

✓ **Muammoli o'qitish.** – Maqsadi - faol shaxsni tarbiyalash. Vazifasi - faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muammoni echish usulini izlashga o'rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish.

- Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:
- ❖ O`quvchilar muammoning echimini o`zlari topishga urinadilar;
- ❖ O`quvchilar bitta savolga har xil fikrlar bildiradilar;
- ❖ Fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.
- Muammoli o`qitishning shakllari:
- ❖ Ma`ruza yoki seminarlarda o`quv materialini muammoli bayon etish;
- ❖ Laboratoriya ishlari yoki tajriba qilishda qisman izlanuvchi faoliyat;
- ❖ mustaqil tadqiqot faoliyati.


✓ **Aqliy hujum.** – Bevosita jamoa bo`lib, “fikrlar hujumi”ni olib borish. Bu uslubdan maqsad – mumkin qadar katta miqdordagi g`oyalarni yig`ish, o`quvchilarni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo`lgan fikrlarni yengishdir.

✓ **“Zig-zag”** – usuli 1980-1990 yillardan boshlab paydo bo`lgan. Bu usulning boshqa guruhlardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va o`quvchilar raqamlanadilar, spiker (boshliq saylanadi). So`ngra bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”. Topshiriq beriladi va o`zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir a`zo o`zi o`zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi. Savol-javobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o`z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur. Chunki, u o`z guruhiga qaytganda, o`rgangan mavzu bo`yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak.

✓ **“Klaster” usuli.** –Fikrlarning tarmoqlanishi - pedagogik strategiya bo`lib, u o`quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o`rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog`langan ketma-ketlikda o`rgatadi.

- Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:
- ❖ Hayolga kelgan fikr bir so`z bilan ifoda etilib, ketma-ket yoziladi;

- ❖ Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u xolda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi;
- ❖ Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlikning ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim;



✓ **6x6x6**– uslubida o‘qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o‘rgatish va ular ko‘pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 6-ta guruh ishtirokchilari o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar. Shundan keyin o‘qituvchi 6ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhida qatnashganlardan birontasi albatta bo‘ladi. Yangi guruh qatnashchilari o‘z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar. 6x6x6 – guruhning barcha a‘zolarini faollashtiruvchi uslubdir.

✓ **“Kungaboqar”** – O‘quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o‘rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar

birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

✓ **“Bumerang” texnologiyasi.**– Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganiyish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. Asosiy tushunchalar quyidagilar:

❖ Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

❖ Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo'q” tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

❖ Ko'ndalang so'roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlarni pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

✓ **“SINKVEYN” texnologiyasi haqida tushuncha**

**“SINKVEYN” – bu besh qatordan iborat bo'lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi.**

**Birinchi qatorda – mavzu (kalit so'z) beriladi;**

**Ikkinchi qatorda – unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi;**

**Uchinchi qatorda – unga harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi;**

**To'rtinchi qatorda – so'z har xil usul bilan yoyiq gapga**

**aylantiriladi;**

**Beshinchi qatorda – kalit so'zning ma'nodoshi(sinonimi)**

**keltiriladi.**

**FSMU texnologiyasi.** – **F** – fikringizni bayon eting; **S** – fikringizning bayoniga biron **sabab** ko'rsating; **M** – ko'rsatgan sababaingizni isbotlab **misol** (dalil) keltiring; **U** – fikringizni **umumlashtiring**. Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Mazkur texnologiya o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach, qo'llanilishi

mumkin, chunki bu texnologiya o`quvchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda baxslashishiga va baxslashish madaniyatiga o`rgatadi.

✓

<b>F</b>	<b>Fikringizni bayon eting</b>	
<b>S</b>	<b>Qarorning sababi</b>	
<b>M</b>	<b>Misol</b>	
<b>U</b>	<b>Xulosa</b>	

✓ **Keys-stadi texnologiyasi haqida tushuncha**

**Keys-stadi** (ing. case – aniq vaziyat, study – o`qitish) – bunda chinakam vaziyatga asoslangan, talaba yuzma-yuz kelgan, topshirilgan vaziyatdan ilojini topib chiqib ketishi yoki to`g`ri qaror qabul qilishi lozim. Muammoning hal bo`lishidan avval qidiruv, tahlil, qo`shimcha ma`lumotdan foydalanib farazlarni ilgari surish, nazariy bilimlardan foydalanish va amaliyotga tadbiiq qilish kabi faoliyatlar bajariladi.

Keys-stadi o`z belgilari bilan quyidagilarni mo`ljallaydi:


- vaziyatda qatnashuvchilar (talaba);
- holat shartlari bilan tanishtiruvchi rahbar (o`qituvchi);
- chinakam, haqiqatga yaqin, aniq bo`lgan muammo va masalalarni ko`rsatuvchi vaziyatni mo`ljallaydi.

Olinadigan natija xiliga ma`lumot manbasi bo`yicha shaxsga ma`lumot berish (taqdimot). O`qituvchi sub`ekt bo`lib, talabalar – vaziyat qatnashuvchilaridir.

Ma`lumot manbai real (haqiqiy) vaziyatdir. Olinadigan natija – muammo-savolning yechilishi, bajarilishi.



## O'quv jarayonini keys texnologiyasi asosida tashkil etish bosqichlari



✓ **Insert texnologiyasi** – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi.

### Insert texnologiyasida qo'llaniladigan maxsus jadval

№	Abzatslar	“Bilaman” V	“Ma’qul layman” +	“O’rganish lozim”- -	“Tushunma dim” -?
1.		V			
2.			+		

Ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini samarali amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishning innovatsion shakl, metodlarining tanlanishiga katta ahamiya beriladi. Ta'lim muassasalarida samarali o'qitish shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: muammoli ma'ruza; videoma'ruza, vebinarlar; binar ma'ruza; intensiv-interaktiv seminar; trening, videotrening; interfaol ekskursiya; On-line seminarlari; taqdimot, kichik guruhlardagi ishv.h.k.

**Binar ma'ruza.** "Binar" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "qo'sh", "ikki" degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchiva o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahsmunozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad–yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

**Trening.** Trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir. Treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiyd arajasini oshirishga yo'naltiriladi. Har qanday pedagogik treninglarni tashkil etish kuyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig'ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang'ich bosqich: guruh me'yorlarini ishlab chiqish
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o'tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko'nikmalari ham rivojlanib boradi.

**Videoma'ruzalar.** Bunday o'qitish shaklida o'qituvchi ma'ruzasi videotasmaga yoziladi, chiziqsiz montaj usulida multimedia, ilovalar, ma'ruzani bayon qilishning ko'rgazmali vositalari bilan to'ldiriladi. Bunday to'ldirishlar ma'ruza mazmunini nafaqat boyitadi, balki uni bayon qilishning jonliroq va tinglovchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Videoma'ruzalar o'quv markazlariga videokassetalar yoki kompakt disklarda yekaziladi.

**«SWOT-tahlil» metodi. Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metod asosida muammo to'rt yo'nalishda ko'ribchiqib, muhokama qilinadi: **S** – (**strength**) – kuchli tomonlari, **W** – (**weakness**) – zaif, kuchsiz tomonlari, **O** – (**opport unitu**) – imkoniyatlari, **T** – (**tnreat**) – to'siqlar.

**“T – chizma” metodi.** Metodning maqsadi: Mazkur metod biror tushuncha, yoki mavzu bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- Trener-o'qituvchi ishtirokchilarni miqdor jihatdan teng gurhlarga ajratadi;
- Ishtirokchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zaraur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi;
- tarqatmalar (ilovadagi) ishtirokchilar guruhiga beriladi va taklif etilgan chizma asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;
- bildirilgan fikrlardan asosiy farqlari ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi;
- belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga yetgach, barcha guruhlarning fasilitatorlari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi;

➤ barcha guruhlarning yakuniy xulosalari o‘qib eshittirilganidan so‘ng, trener-o‘qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo‘shimcha to‘ldirishlarni kiritadi.

**“Assesment” texnikasi (ing. tilidan “baho”).** Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**«Blits-o‘yin” metodi.** Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakkabaho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘zishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi.

Shundan soʻng «yakk axato» boʻlimidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qoʻshib chiqilib, umumiy yigʻindi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «toʻgʻri javob» va «guruh bahosi» oʻrtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» boʻlimiga yozib, yuqoridan pastga qarab qoʻshiladi va umumiy yigʻindi keltirib chiqariladi.

6. Trener-oʻqituvchi yakka va guruh xatolarini toʻplangan umumiy yigʻindi boʻyicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu boʻyicha oʻzlashtirish darajalari aniqlanadi.

## **II.BOB.“JAHONNING SIYOSIY KARTASI” MAVZUSINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

### **2.1. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusi bo`yicha dars ishlanmasi**

#### **I. Darsning maqsadi :**

1. ***Ta`limiy***: Davlat ta`lim standarti asosida jahon siyosiy kartasini rivojlanish bosqichlari, davlatlarning joylashgan o`rni, ularning poytaxti, boshqaruv shakli, davlat tuzumi, iqtisodiy rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan davlatlar, iqtisodiy jihatdan past darajada rivojlangan davlatlar to`g`risida ma`lumot beraman.
2. ***Tarbiyaviy***: o`quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, olgan bilimlarini hayot bilan bog`lay olishni, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, estetik did, axloqiy sifatlarni, kasb-hunarga bo`lgan qiziqishlarini tarkib toptirish. Ta`biatga mehr-muhabbat uyg`otish asosida ekologik tushunchalarni kengaytirish.
3. ***Iqtisodiy***: Tejamkorlik haqida tushuncha beraman
4. ***Ekologik***: yer, suv, havo, tuproq va o`simliklarni muhofaza qilish haqida tushuncha beraman
5. ***Rivojlantiruvchi***: mustaqil ishlash va u orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o`rgatish, nutqni o`stirish, fanga qiziqishini orttirish.
6. ***Kasbga yo`naltiruvchi***: *Olim bo`lsang- olam seniki. Dunyo ko`rish, olamni anglash, insonlarga nafi tegishi*

#### **II. Darsning usuli: Noan`anaviy dars**

#### **III. Dars usuli: Aralash(klaster, ha-yo`q usuli, muloqot, o`yin, musobaqa)**

#### **IV. Dars jixozlari: dunyoning siyosiy kartasi, o`quv globusi, tarqatmalar, testlar, darslik, 9-sinf atlas, yozuvsiz karta.**

#### **V. Darsning nomi: Yer yuzi bepoyon, uni idrok et.**

## **VI. Darsning shiori: Geografiya dunyoning ko`zgusi.**

## **VII. Darsning borishi:**

1. *Tashkiliy qism:* dars avvalida salomlashib, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat qilinadi. Bugungi kun ob- havosi va atrof-muhitdagi ta'biy o'zgarishlarga sharh beradilar.
2. *Davomatni tekshiraman.*
3. *Yangiliklarni so'rayman.*

## **VIII. Yangi mavzu bayoni:**

Reja:

1. Jahon siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari.
2. Hozirgi vaqtda jahon siyosiy kartasining ko'rinishi.
3. Iqtisodiy daromadlari bo'yicha davlatlarning guruhlanishi.

Jahon siyosiy kartasi global miqyosdagi bir necha siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Shularning ichida Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari hamda ularning oqibatlari bilan bog'liq holda davlatlarning vujudga kelishi, mustamlaka tizimining yemirilishi hamda bir necha o'nlab mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, qo'shilmaslik harakatining rivojlanishi va boshqa jarayonlar e'tiborga loyiqdir. Jahon siyosiy kartasining shakllanishida XX asr 80-yillarining so'nggi va 90-yillarining boshlarida bo'lib o'tgan siyosiy voqealar: ikki nemis davlatining qo'shilib, yagona Germaniya davlatining tashkil etilishi, Chexoslovakiya o'rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalarining barpo bo'lishi, Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parchalanib ketishi natijasida suveren Xorvatiya, Sloveniya, Makedoniya, Bosniya va Gersegovina, Serbiya hamda Chernogoriya davlatlarining shakllanishi va, ayniqsa, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida, dastlab Litva, Latviya va Estoniya, keyinchalik esa Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Armeniya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston

respublikalarining mustaqil davlatlar sifatida dunyo siyosiy kartasida o'z o'rinlariga ega bo'lishlari juda muhim ahamiyat kasb etdi. Dunyo siyosiy kartasidagi davlatlar va mamlakatlar nisbati hamda soniga dastlab (1997-yil 1-iyulda) Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong (Syangan)ning, keyinchalik (1999-yil dekabr oyida) Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin)ning Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kirishi, 2000-yilda esa BMT tomonidan Indoneziya tarkibida bo'lgan Sharqiy Timorga alohida maqom berilishi hamda 2008-yilda Chernogoriyani Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasidan chiqib mustaqillikka erishishi ham malum ta'sir ko'rsatdi. Undan tashqari, 2011 -yilda Janubiy Sudan Sudan tarkibidan ajralib chiqdi.

Hozirgi vaqtda dunyo siyosiy kartasida 227 mamlakat mavjud bo'lib, ularning 149 tasi respublika, 45 tasi monarxiya, 9 tasi mustamlaka, 21 tasi boshqa (masalan, «hamdo'stlik» tarkibidagi mamlakatlardan tashkil topgan, Buyuk Britaniya general gubernatori boshqaradigan Karib dengizi havzasidagi hamda Fransiyaga qarashli «Okeaniya»dagi mamlakatlar) shakldagi mamlakatlar hamda 3 tasi maqomi noma'lum mamlakatlardir.

Hozirgi vaqtda davlatlarni ularning daromadlari bo'yicha ayrim guruhlariga *ajratish* masalasi dolzarb ahamiyat *kasb* etadi.

Davlatlarni iqtisodiy daromadlari bo'yicha guruhlash “Jahon Banki Atlasi” metodikasi doirasida amalga oshirilgan. Unga binoan jahon mamlakatlari aholisi *jon* boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromadiga ko'ra 4 ta guruhga taqsimlangan:

1. Past daromadli - 935 AQSH dollaridan kam;
2. O'rtacha daromadli - 936-3705 AQSH dollari doirasida o'zgaruvchi mamlakatlar guruhi;
3. Daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori, ya'ni 3706 dollardan 11455 dollargacha bolgan doirada o'zgaruvchi mamlakatlar guruhi;
4. Yuqori daromadli mamlakatlar, ularda aholi jon boshiga 11456 AQSH dollaridan ortiq milliy daromad to'g'ri keladi (*World Development Report, 2009*)



Ana shu metodik yondashuvdan kelib chiqqan holda jahon mamlakatlari yuqori daromadlidan past daromadliga qarab 4 ta guruhga bolingan.

Birinchi (yuqori daromadli) guruhga 62 mayda, kichik, katta va yirik mamlakatlar kiradi. Bularning ichida mayda Farer orollari, Guam, Aruba kabi mamlakatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy salohiyati ulkan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va boshqa davlatlar ham bor.

Ikkinchi guruhni milliy daromadi aholi jon boshiga 3706 dollardan 11455 dollargacha o'zgaruvchi mamlakatlar (umumiy soni 41 ta) tashkil etadi. Shundaylar qatoriga Polsha, Meksika, Venesuela, Livan, JAR, Malayziya kabi mamlakatlar bilan birga kichik va juda kichik Amerika Samoasi, Fiji, Mayotta mamlakatlari ham kiradi.

Uchinchi guruh Xitoy, Indoneziya, Filippin, Armeniya, Ozarbayjon, Ukraina, Kiribati, Vanuatu, Sharqiy Timor va boshqa shu kabi mamlakatlardan iborat.

To'rtinchi guruhga Kambodja, KXDR, LXDR, Myanma, Vyetnam bilan birga Qirg'iziston, Tojikiston, Yaman kabi mamlakatlar kiritilgan.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy ko'rsatkichdan tashqari demografik, geografik, geosiyosiy va boshqa turdagi salohiyatiga binoan ham ayrim guruhlarga ajratiladi. Jumladan, iqtisodiy rivojlangan birinchi guruh mamlakatlari ichidagi AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada ikkinchi guruhga mansub Rossiya bilan birga ulkan iqtisodiy, demografik, geosiyosiy, harbiy va hududiy salohiyatga ega "Sakkizlik davlatlari" ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar 2011-2012-yillardagi ma'lumotlarga binoan jahon bo'yicha quyidagi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarga ega

Rossiyani «Sakkizinchi davlat» sifatida mazkur guruhga qabul qilinishida, dastavval, uning iqtisodiy salohiyati, geosiyosiy mavqeyi va ulkan harbiy qudrati hisobga olindi.

«Sakkizlik davlatlari»ning o'rtacha har biriga salkam 5 mln. km<sup>2</sup> maydon, qariyb 110 mln. aholi, 4,4 trln. dollar YIM hamda 1,5 trln. dollarga teng tovar aylanmasi to'g'ri keladi. Eng muhimi, ushbu davlatlarda jahon YIM ning 55,5% i jamlangan.

Rivojlangan mamlakatlar ichida ko'chirilgan kapitalizm mamlakatlarini (Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR va b.) hamda yangi sanoatlashgan mamlakatlar (Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan va b.)ni ham ajratish mumkin. Undan tashqari, asosan, birinchi va ikkinchi guruhlariga mansub «neft eksport qiluvchi davlatlar», ikkinchi-to'rtinchi guruhlariga mansub o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar ham alohida e'tiborga loyiq. Katta va ulkan iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar - Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya va Meksika jahonning tayanch mamlakatlari guruhini tashkil etadi. Uchinchi va, ayniqsa, to'rtinchi guruh mamlakatlarining aksariyat qismi rivojlanayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Rivojlanayotgan davlatlar ichida iqtisodiy taraqqiyotda ortta qolayotgan mamlakatlar alohida e'tiborga loyiq. Bunday mamlakatlar Lotin Amerikasida amalda deyarli qolmadi. Lekin Osiyo va, ayniqsa, Afrikada ularning soni hanuzgacha anchagina. Shunday davlatlar qatoriga birinchi navbatda, afrika materigida Burkino-Faso, KDR, Eritreya, Liberiya, Niger, Ruanda, Serra-Leone, Togo, Uganda, Zimbabve, Burundi, Efiopiya, Malavi, Mozambik; Osiyo qit'asida Afg'oniston, Nepal, Butan, Bangladesh, Laos va boshqalar kiradi.

Keyingi davrda Varshava Shartnomasi Tashkilotining faoliyati barham topdi. Shundan keyingi davrda davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik va bir-birini tushunishga bo'lgan intilish jarayoni rivojlana boshladi. Bunday holat Rossiya bilan AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda ham o'z ifodasini topa boshladi. Lekin «sovuq urush» barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda.

Shu bilan birga, Yaqin Sharq, Kosovo, Bosniya, Afg'oniston va boshqa qator mintaqaviy mojarolar va nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda sezilarli ijobiy siljishlarga erishildi. Bunda BMT hamda NATOning o'rni va ahamiyati katta

bo'lganligini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. "Bizningcha, o'z tarkibida demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga juda katta Yevrosiyo mintaqasida ham tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin"

NATO mamlakatlari tomonidan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining qabul qilinishi va hayotga joriy etilishi siyosiy vositalar yordamida ko'plab mintaqaviy mojarolarni ijobiy hal qilishga imkon berdi.

Sinfdagi o'quvchilar emblemalar orqali guruhga bo'linadi. Ularni guruhlarga ajratish uchun o'qituvchi tomonidan stol ustiga "Respublika", "Monarxiya", db yozilgan qog'ozchalar qo'yiladi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, qog'ozcha tanlab, o'z joylariga o'tiradilar.

Ya'ni :

1-guruh- Respublika,

2-guruh- Monarxiya

3-guruh



Har bir guruh o'tirgan stoliga guruh nomlari yozilgan.


Darsning birinchi shartini boshlaymiz.


#### 1. Klaster usuli:

1- shart









Birichi shart yuzasidan guruhlar 10 balli sistemada (1- ilova 5 ball, 2- ilova 1ball, 3-ilova 4 ball) baholanadi.

2-shart . Guruhlarga 2- reja yuzasidan topshiriqlar tarqatiladi.

1. Davlatlarni o'z materigiga jo'nating.
2. Davlatlarning poytaxtini va joylashgan materigini toping.
1. Yong'oqcha o'yini (kartadan ko'rsatish).

**Davlatlarni o'z materigiga jo'nating.**

Davlatlar		Joylashgan maretik				
T /r	Davlatlar	Yevrosiyo	Afrika	Avstraliya	Shimoliy Amerika	Janubiy Amerika
1	Angola					
2	Benin					
3	Gayana					
4	Daniya					
5	Ekvador					
6	Estoniya					
7	Gaiti					
8	Ummon					
9	Vengriya					
10	Chili					
11	Paragvay					
12	Gabon					
13	Avstraliya					
14	Boliviya					
15	Nikaragua					

Davlatlar		Joylashgan maretik				
T /r	Davlatlar	Yevrosiyo	Afrika	Avstraliya	Shimoliy Amerika	Janubiy Amerika
1	Angola		+			
2	Benin					
3	Gayana					+
4	Daniya	+				
5	Ekvador					+
6	Estoniya	+				
7	Gaiti				+	
8	Ummon	+				
9	Vengriya	+				
10	Chili					+
11	Paragvay					+
12	Gabon		+			
13	Avstraliya			+		
14	Boliviya					+
15	Nikaragua				+	

**Davlatlarning poytaxtini va joylashgan materigini toping.**

t/r	Davlatlar nomi	Poytaxti	Joylashgan o'ri
1	Kosta -Rika		
2	Peru		
3	Gabon		



4	Estoniya		
5	Ekvador		
6	Yangi Zelandiya		
7	JAR		
8	MAR		
9	Sharqiy Timor		
10	Myanma		
11	Lesoto		
12	Beliz		
13	Yaman		
14	Papua-Yangi Gvineya		
15	Dominikana Respublikasi		

t/r	Davlatlar nomi	Poytaxti	Joylashgan o'ri
1	Kosta -Rika	San-Xose	Shimoliy amerika
2	Peru	Lima	Janubiy Amerika
3	Gabon	Librevil	Afrika
4	Estoniya	Tallin	Yevrosiyo
5	Ekvador	Kito	Janubiy Amerika
6	Yangi Zelandiya	Vellington	Avstraliya va Okeaniya
7	JAR	Pretoriya	Afrika
8	MAR	Bangi	Afrika

9	Sharqiy Timor	Dili	Yevrosiyo
10	Myanma	Yangon	Yevrosiyo
11	Lesoto	Maseru	Afrika
12	Beliz	Belmopen	Shimoliy Amerika
13	Yaman	Sana	Yevrosiyo
14	Papua-Yangi Gvineya	Port-Morsbi	Avstraliya va Okeaniya
15	Dominikana Respublikasi	Santo-Damingo	Shimoliy Amerika

### **Yong'oqcha o'yini (kartadan ko'rsatish).**

Bu o'yinda daraxt shohlari va yong'oq mevasi qobiqchalarigan foydalanib, yong'oq darahti yasaladi. Har bir yong'oqcha ichiga davlatlar yozilgan qog'ozcha solingan bo'ladi. Yong'oqchalar soni 15 ta bo'lishi mumkin. Guruh a'zolari yong'oqchadagi davlatlarni kartadan ko'rsatishadi. Masalan: Italiya, Qozog'iston, Kongo Demokratik Respublikasi, Laos, Indoneziya ...

Davlatlarni topgan o'quvchilarga qizil rangli kartochka, topolmaganlarga sariq , to'liqsiz javobga esa yashil kartochkalar berib boriladi:

Qizil kartochka- 1 ball

Yashil kartochka- 0,5 ball

Sariq kartochka- 0 ball

### **3-Shart Ha-yo'q metodi**

#### METODNING MAQSADI:

- o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda muloqotlar rejalashtirish imkonini berish.
- uslub o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish.

- munozara madaniyati o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini asoslashdan iborat.

O'TKAZISH TARTIBI: o'quvchilar bahs mavzusi bo'lishi kerak bo'lgan mavzu bilan uylarida tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak bahs to'g'risida o'quvchilarga axborot berar ekan, bahslar qaysi yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi.

Ha

- **Savol:** Farer orollari, Guam, Aruba , AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya davlatlari yuqori daromadli davlatlar qatoriga kiradimi?
- **Dalil:** Sababi bu mamlakatlarda aholi jon boshiga 11456 AQSH dollargacha ortiq milliy daromad to'g'ri keladi

Yo'q

- **Savol:** Indoneziya , Filippin, Armeniya, Ozarbayjon, Ukraina kabi davlatlar daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori davlatlarga kiradimi?
- **Dalil:** Ushbu davlatlarda aholi jon boshiga 936-3705 AQSH dollari to'g'ri keladi

Ha

- **Savol:** Kambodja, KHDR, LHDR, Myanma, Vyetnam bilan Qirg'iziston, Tojikiston, Yaman kabi davlatlar past daromadli davlatlar guruhiga kiradimi?
- **Dalil:** sababi bu mamlakatlarda aholi jon boshiga 935 AQSH dollari to'g'ri keladi

Yo'q

- **Savol:** Polsha, Meksika, Venesuela, Livan, JAR, Malayziya kabi mamlakatlar yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga kiradimi?
- **Dalil:** sababi ushbu davlatlarda aholi jon boshiga 3706-11455 AQSH dollari to'g'ri keladi

## IX. Mustahkamlash : o'rganilgan bilimlar o'qituvchi tomonidan tezkor test sinovi orqali mustahkamlanadi

1. Hozirgi vaqtda dunyo siyosiy haritasida qancha mamlakat bor? (225 ta)

2. Respublikalar soni qancha? (148 ta)
3. Monarxiyalar soni qancha?()
4. Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong nechanchi yili Xitoy
5. Xalq Respublikasi tarkibiga kirdi? (1997-yil 1- iyulda)Portugaliya mustamlakasi Makao nechanchi yili Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kirdi? (1999-yil dekabr oyida).
6. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Rossiya bu mamlakatlarni nima birlashtirib turadi? ( “Sakkizlik davlatlari”)
7. “Jahon Banki Atlasi” metodikasi doirasida davlatlar iqtisodiy daromadlari bo'yicha nechta guruhga bo'linadi? (4 ta )
8. Maqomi noma'lum mamlakatlar soni nechta?( 4 ta )
9. BMT tomonidan Sharqiy Timorga nechanchi yili alohida maqom berildi? (2000- yilda)
- 10.Sakkizlik davlatlarda jahon YaIM ning necha foizi jamlangan? (53 foizi )

#### **X. O'quvchilar bilimni baholash.**

Dars yakunida guruhlar to'plagan ballar, kartochkalar sanaladi va o'quvchilar baholanadi. Guruhlarda to'plangan natijalar e'lon qilinadi. G'olib guruh aniqlanib, “OFARIN” deb yozilgan kartochka taqdim etiladi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarga “BARAKALLA” deb yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ular olgan baholar e'lon qilinadi.

#### **XI. Uyga vazifa : jahonning siyosiy kartasi mavzusini o'qib, mavzu yuzasidan 10 ta test savoli tuzish.**

## 2.2. Ta'limning interfaol metodlari

1- ilova

**Blits – so'rovsavollari:**

1. Dunyo siyosiy xaritasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ta'rif bering.
2. Siyosiy xaritaning shakllanishidagi asosiy bosqichlarni ta'riflang.
3. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra qanday guruhlariga ajratiladi?
4. Monarxiya va respublika nima? Ularning qanday farqlari bor?
5. Unitar va federativ davlatlar deganda qanday davlatlar tushiniladi?
6. Dunyoning kuchli ettilik davlatlariga ta'rif bering.

2-ilova

### BBB texnikasining qoidasi

1. "Insert" texnikasidan foydalanilgan holda matnni o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo'yilgan belgilar asosida BBB jadvalinilo'ldiring

Mavzuga oid asosiy tushunchalar	Bilaman	Bilib oldim	Bilishni ho'xlayman
Dunyoning siyosiy kartasi			
Insoniyatning siyosiy geografik tarixi			
Siyosiy geografik o'rin			
Buyuk geografik kashfiyotlar			
Geosiyosat			

## «INSERT» usuli

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot


(-) – men bilgan narsaga zid

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

<b>Tushunchalar</b>	<b>V</b>	<b>+</b>	<b>-</b>	<b>?</b>
Dunyoning siyosiy kartasi				
Elektoral geografiya				
Geokonfliktologiya				
Limmologiya				
Demarkatsiya				
Anklav hududlar				
Eksklav hududlar				
Mutloq teokratik davlat				

## Klasterni tuzish qoidalari

1. Topshiriqni diqqat bilan o'qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo'lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e'tibor bermang.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlikka e'tibor qarating.




### 5-ilova

#### Venndiagrammasini to'ldirish qoidasi:

1. Ma'lumotlarni doiraning kesishmaydigan tomonlariga yozib chiqing.
2. Doiraning kesishgan joyiga har ikki tomondagi ma'lumotlarning umumiy bo'lgan jihatlar nomerini yozing.

#### VENN DIAGRAMMASI



O'zbekistonning dunyo siyosiy kartasida tutgan o'ri

«SWOT-tahlil» metodi. Mazkur metod asosida muammo to'rt yo'nalishda ko'rib chiqib, muhokama qilinadi: **S** – (**strength**) – kuchli tomonlari, **W** – (**weakness**) – zaif, kuchsiz tomonlari, **O** – (**opportunitu**) – imkoniyatlari, **T** – (**tnreat**) – to'siqlar.

<b>S</b>	
<b>W</b>	
<b>O</b>	
<b>T</b>	

**Davlatlar bayroqlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.**

1) Janubiy Koreya; 2) Braziliya; 3) O'zbekiston; 4) Kanada; 5) Shveysariya; 6) ; Baxrayn 7) Argentina

## 2.3. “Jahonning siyosiy kartasi” mavzusi yuzasidan keys-stadi

## I .PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

**Mavzuning nomi:** “Jahonning siyosiy kartasi”.

**Ishtirokchilar:** 9-sinfo'quvchilari.

**O'qitishning maqsadi:** o'quv kursi bo'yicha egallangan bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida Jahonning siyosiy kartasi haqida ma'lumotlar berish, uning amaliy ahamiyati kabi tushunchalarga ega bo'lish ko'nikmalarni shakllantirish.

**Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:** Dunyoning siyosiy kartasiga ta'rif beradilar; Dunyoning siyosiy kartasi bo'yicha qiyosiy tahlilini o'tkazadilar; Dunyoning siyosiy kartasi bo'yicha loyiha mazmuniga qarab



muammoni ajratadilar va uni yechish vazifalarini belgilaydilar; muammo yechimini usul va vositalarini asoslangan holda topadilar; o`z faoliyatini rejalashtiradilar; tahlil qilishni biladilar.

Loyihalashtirish faoliyati bo`yicha quyidagi amaliy ko`nikmalarga ega bo`ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish; o`z faoliyatini rejalashtirish; ma'lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil etish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko`rinishda taqdim etish.

**O`quvchilar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo`lgan tayanch bilim va ko`nikmalar quyidagilardan iborat:**

Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak: - dunyo siyosiy kartasi, hududiy siyosiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishi kerak;

- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarishga doir ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak;

- turlicha hududiy siyosiy tizimlar va ularning elementlarini tadqiq qilishda ilmiy tadqiqot usullarini qo`llay bilish va xulosalar olish malakalariga ega bo`lishi kerak;

Turlanish belgilari bo`yicha loyihaga tavsif: turi axborotli ; predmet va mazmun jihatdan ko`lami bir fan bo`yicha foydalaniluvchi monoloyiha; o`quvchilar o`quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri bevosita; ishtirokchilar soni guruh o`quvchilari 4 ta ishchi guruhga bo`linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan 6 tagacha ishtirokchi bo`lishi mumkin (o`quvchilar ko`proq bo`lsa, loyiha yo`nalishlarini ko`paytirish mumkin); bajarish muddati qisqa muddatli – 7 kun.

**Loyihani bajarish tartibi:** o`quvchilarning sinfdan tashqari mustaqil faoliyatlarida bajariladi, amaliy mashg`ulotda taqdim etishadi. Loyiha mahsuli amaliy mashg`ulotda, o`quvchilar va pedagog o`rtasida belgilangan kunda amalga oshiriladi.

**Loyihaning baholanishi** –ishchiguruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a’zosi uchun): o`quvchilar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari (maks. ball – 5); hisobot (maks. ball – 5); loyiha taqdimoti va himoya etish jarayoni (maks. ball – 5).

### **Loyiha asosida o`qitish bosqichlari.**

Tayyorlov bosqichi: loyiha bilan tanishish; sinfdagi mashg`ulot vaqtida o`quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Loyihani bajarish bosqichlari: sinfdan tashqari faoliyat davrida.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyiha va sinf mashg`ulotida o`quvchilarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

Loyiha asosida o`qitishni boshqarish: sinfdan tashqari faoliyatda.

### **O`qitish modeliga qisqacha tavsifnoma.**

Loyiha asosida o`qitish jarayonida quyidagilar qo`llaniladi:

o`qitish usullari: loyihalashtirish usuli, matn va axborot manbalari bilan ishlash, taqdimot; o`qitish shakllari: ommaviy, alohida, guruhiy; o`qitish vositalari: loyiha topshirig`i, uslubiy ko`rsatmalar, kompyuter texnologiyalari.

### **O`quv loyihasi: “Jahonning siyosiy kartasi”**

#### **1.Loyiha topshirig`i**

**Kirish.** Yer sharidagi davlatlar o`zlarining katta-kichikligi, geografik o`rni va joylanishi, siyosiy tuzumiga ko`ra bir xil emas. Chunonchi, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, AQSh, hindiston, Avstraliya, Braziliya kabi hududi nihoyatda katta mamlakatlar bilan bir qatorda o`nga yaqin juda kichik, “mitti” davlatlar ham bor (eng kichigi Rim shahri ichidagi Vatikan bo`lib, uning maydoni 400 km<sup>2</sup>, aholisi 1 ming kishidan iborat). Aholi soniga bo`yicha dunyoning eng katta davlatlari Xitoy, hindiston, AQSh, Indoneziya, Jazoir, Sudan, Kongo, Saudiya Arabistoni va boshqalardir (hozirgi kunda 100 milliondan ortiq aholiga ega bo`lgan 11 davlat mavjud).

Geografik joylanishiga ko`ra mamlakatlar orolda, yarim orolda, dengiz va okeanlar bo`yida, materik ichkarisida joylashganligi bilan farq qilishadi. Masalan,

Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Kipr, Yaponiya, Maldiv Respublikasi, Kuba, Fillipinga o`xshash hamda Okeaniyadagi kichik davlatlar orollarda, Janubiy va Shimoliy Koreya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Norvegiya, Shvetsiya kabilar yarim orollarda joylashgan. Ko`pchilik davlatlar bevosita jahon okeani va dengizlari bo`yicha o`rnashgan, ayrimlari esa (Boliviya, Paragvay, Nepal, Butan, Afg`oniston, Qozog`iston, Armaniston, Turkmaniston, O`zbekiston, Qirg`iziston, Avstriya, Lyuksemburg, Shvetsariya, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi va hokazo) materik ichida. Masalan, O`zbekiston Respublikasi jahon okeaniga chiqishi uchun eng kamida 2 xorijiy mamlakat hududidan o`tishi kerak. Bu borada u dunyoning geosiyosiy kartasida ikki mamlakatdan biri hisoblanadi.

Mamlakatning ichki jihatdan tashkil etish va boshqarish ko`proq uning hududini qiyofasiga va geoshakliga ham bog`liq. Shu nuqtai-nazardan mamlakat hududining ixcham (kompakt) bo`lgani ma'qul. Bunga misol qilib, Frantsiya yoki Polsha davlatlarini keltirish mumkin. Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya yoki Chili davlatlarining hududi esa «cho`zinchoq» uzoq masofaga cho`zilgan. Bunday holat, albatta, transport va boshqa infrastruktura tizimini rivojlantirish aholiga xizmat ko`rsatish va hatto harbiy strategik jihatdan ham qulay emas.

Xuddi shu nuqtai-nazardan davlatlar hududining yaxlit, bir butun yoki anklav, eksklav shakllariga ega bo`lishi ham ma'lum mazmunga ega. Anklav shakli mamlakat hududining boshqa mamlakat hududiga suqilib kirishi (dengiz qo`ltig`i, yoki yarim orollarga o`xshab) demakdir. Bunga misol Toshkent viloyatining cheka shimoli-sharqiy qismi, Tojikiston Respublikasi So`g`d viloyatidagi Zafarobod tumanlarini kiritish mumkin. Eksklavda esa davlat chegarasining yaxlit emasligi, uning kichikroq hududini asosiy hududdan tamomila ajralib qolgan holati tushuniladi. Masalan, AQShning Alyaska va Gavayi orollari (49, 50 shtatlari), o`zimizning O`zbekistondagi Farg`ona viloyatining Shohimardon qishlog`i, yoki So`x tumani, Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad viloyati va b.).

Siyosiy geografiyada davlat chegarasi, uning shakli ham katta ahamiyat kasb etadi. Odatda, bu chegaralar ikki vazifani bajaradi-ular hududlarni bir-biridan

ajratib, barer sifatida va ayni vaqtda ikki davlatni bog`lab, ular o`rtasida, iqtisodiy integratsiya maydoni darajasida xizmat qilishadi. Shu bilan birga chegaraga tutash rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi o`ziga xos bo`ladi.

Davlatlarning siyosiy geografik o`rni va siyosiy tuzimi ham har xil. Siyosiy geografik o`rin deganda ma'lum bir davlatning boshqa (qo`shni va jahon hamjamiyati) davlatlariga hamda yirik davlatlararo harbiy va siyosiy uyushmalarga, Jaxon okeaniga nisbatan tutgan o`rni tushuniladi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasining hozirgi siyosiy geografik o`rnini uncha qulay deb bo`lmaydi.

### **Loyiha doirasida yechilishi kerak bo`lgan muammo: .**

Vazifalar:

1. Dunyo siyosiy kartasining mohiyati va mazmuni.
2. Dunyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari. XX asrgacha dunyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari.
3. XX asrning ohiri XXI asrning boshlarida dunyo siyosiy kartasi.
4. Dunyo siyosiy kartasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
5. Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar

**Loyihaning maqsadi** o`quvchilarda hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar va ularning geosiyosiy jihatlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish

**Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli)**

“Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar” nomli ma'lumotnoma.

**Loyihadan foydalanuvchilar:** o`qituvchilar, o`quvchilar, foydalanuvchilar.

**Loyiha doirasi:**

- bajarilish muddati: 1 hafta, loyiha qismlari belgilangan grafik asosida;
- ishtirokchilar soni: har bir ishchi guruhda 6 tagacha ishtirokchi bo`lishi mumkin.

## Ma'lumotnomaning tarkibiy tuzilishi:

### Kirish

1. Dunyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari.
2. XX asrning ohiri XXI asrning boshlarida dunyo siyosiy kartasi.
3. Dunyo siyosiy kartasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
4. Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar

### Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

## II. O`QUVCHILAR UCHUN USLUBIY KO`RSATMALAR

### 1. Loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqichbajarish uchun ko`rsatma

#### 1. Tayyorlov bosqichi.

1.1. Loyiha mavzusini tanlang, dolzarbligini asoslang va yechishingiz kerak bo'lgan muammoni shakllantiring.

1.2. Loyiha maqsadi, predmeti, obyekti va vazifalarini belgilang.

1.3. Loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tayyorlang. Ularni yechish usul va vositalarini tanlang.

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishing (o`quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar, tezislar va internet ma'lumotlari va boshqalar).

#### 2. O`quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlang, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

### Loyiha bajarilishining ish rejasi

Ishtirok chi-	Topshiriq	Faoliyat turi	Tayyor mahsul ko`rinishi	Bajarish muddati
---------------	-----------	---------------	--------------------------	------------------

<b>larning F.I.Sh.</b>				
	Dunyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari.	Ma'lumotlar manbaini tanlash, ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, qiyosiy tahlilini o'tkazish, matn, jadval, sxemalar ko'rinishida rasmiylashtirish, tavsiyalar berish.	Sxemalar, jadvallar va qisqa tavsiyalar ko'rinishidagi tizimlashtirilgan axborot.	1 kun
	XX asrning ohiri XXI asrning boshlarida dunyo siyosiy kartasi.			
	Dunyo siyosiy kartasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar			
	Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar			2 kun
	Loyiha mahsulini rasmiylashtirish	Loyihaviy ish natijalarini komponovka qilish.	"Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasidagi jarayonlar"	1 kun
	Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	Yo'riqnomada ko'rsatilgan qoyda asosida hisobot tayyorlash	Hisobot	1 kun
	MS Power Pointda loyiha taqdimotini tayyorlash	Yo'riqnomada ko'rsatilgan qoyda asosida taqdimot tayyorlash	Taqdimot	1 kun

**Izoh:**– har bir guruhdagi ishtirokchilar hamda mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ishtirokchilarning F.I.Sh.lari belgilanadi;

3. Loyihani bajarish bosqichi.

3.1. Kerakli ma'lumotlarni to'plang, tizimga keltiring va tahlil qiling.

3.2. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtiring (tayyor holatga keltiring).

3.3. Yo'riqnomaga muvofiq loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlang.

4. Loyihani taqdimotga tayyorlash.

4.1. MS Power Point da taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlang.

4.2. Loyihaning og'zaki taqdimotida guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniqlang.

5. Ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash.

## **2. Loyiha ishi to`g`risida hisobotga tayyorgarlik bo`yicha yo`riqnoma**

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi ulosalarni (1 betdan ko`p bo`lmagan matn asosida) ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo`lgan muammoni (5-6 so`z bilan) asoslang.
3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo`lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko`rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma`noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.
6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko`rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo`yicha foydalanilgan manbalar ro`yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang:
  - loyiha sifatini;
  - loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o`tish yo`llari.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko`ra).

## **3. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo`yicha yo`riqnoma**

1. MS Power Point da taqdimotga tayyorlash jarayoni quyidagilardan iborat:
  - taqdimot turini tanlash;
  - taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
  - slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
  - yangi slaydlarni qo`shish;
  - slaydlarni belgilashni tanlash;
  - zarur bo`lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o`zgartirish;
  - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animasiyalarni yaratish.
2. Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

- Slaydlar miqdori (8-12).
- Slaydlarning mazmunli ko`rsatkichlari:
  - birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o`quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
  - oxirgi slayd axborot manbasiga bag`ishlangan;
  - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- Slaydlar o`z-o`zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.
- Agar matn og`zaki bo`lsa, quyidagicha bo`lishi zarur:
  - yuqori axborotli;
  - bog`lovchili;
  - aniq va qisqa;
  - oddiy (quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan ro`yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so`zlari kamroq bo`lishi)- bularning barchasini ma'ruzachini o`zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o`rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
  - (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo`lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.
- Ovoz tiniq bo`lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozini eshitib bo`lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.
- Rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo`lishi zarur. Rasmlarning o`lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo`qotasiz.
- Videotasmalar taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo`lishi kerak. Bezaklar chalg`itishi mumkin.
- Jadvallarda ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko`rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to`ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko`p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo`ladi. Taqdimot boshlashdan avval sinfda o`tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.



➤ Chizmalar bir bo`limdan boshqa bo`limga aniq va mantiqiy ravishda o`tishga moslashtirilishi kerak. O`tish chiziqlari ekranda yaxshi ko`rinishini tekshiring.

#### 4. Baholash mezoni va ko`rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- har bir o`quvchilar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida (mavzular bo`yicha) qismlari (eng yuqori 5 ball);
- hisobot (eng yuqori 5ball);
- MS Power Point loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- og`zaki taqdimot va loyiha himoyasi (eng yuqori 5 ball).

##### 4.1. Bajarilgan loyiha bo`yicha mahsulotni baholash

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko`rsatkichlari</b>
1.	Ma'lumotnoma mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga ma'lumotnoma mazmuni mos kelsa
2.	Loyiha: Mavzu bo`yicha yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, -yangi; - loyiha vazifasini to`liq aks ettiradi; -keng manbalarga asoslangan
3.	Axborotning rasmiylashtirilishi	Agar axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo`lsa, Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo`lsa, -ma'lumot mazmunini to`liq aks ettiradi; -standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan
<b>O`rt.: 5 ball</b>		

##### 4.2. Bajarilgan loyiha bo`yicha hisobotni baholash

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko`rsatkichlari</b>
1	2	3
1.	Hisobotni tayyorlash bo`yicha yo`riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo`riqnomaga muvofiq bo`lsa,
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo`lsa,
3.	Yechimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo`lsa,
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo`lsa,

5.	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo`lsa,
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo`lsa,
7.	Vazifalar bo`yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo`yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko`rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo`lsa,
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo`lsa,
9.	Foydalanilgan manbalar ro`yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro`yxati bajarilgan vazifalar bo`yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo`lsa,
10.	Loyiha faoliyatini o`zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilgan bo`lsa,
11.	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo`lsa,
<b>O`rt.: 5 ball</b>		

#### **4.3. Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash**

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko`rsatkichlari</b>
1.	Loyiha taqdimoti bo`yicha yo`riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo`riqnomaga izchilligi bo`lsa, maks.
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo`riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo`riqnomaga rioya etilgan bo`lsa,
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo`lsa,
<b>O`rt.: 5 ball</b>		

#### **4.4. Bajarilgan loyihaning og`zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash**

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko`rsatkichlari</b>
1.	Og`zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; so`zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); taqdimot vaqtida beadabsizlik holatlariga yo`l qo`yilmasliklari,
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a`zolari ishtirok etgan bo`lsa, Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo`lsa,
<b>O`rt.: 5 ball</b>		

#### 4.5. O`quv loyihaviy faoliyatni reyting baholash jadvali

O`quvchi \_\_\_\_\_

Baholash mezonlari	Baholash ko`rsatkichlari					
	mazmunli faollik	vaqtida bajarilganlik	ishning unumiligi	baho (ball)		
				o`z-o`zini baholash	guruhlar	o`qituvchi
Loyihaning maqsadi va vazifalarini ifodalash, uni bajarish usullari va vositalarini aniqlash						
Ishni rejalashtirish						
Alohida (individual) vazifani bajarish						
Mahsulotni rasmiylashtirish						
Hisobot tayyorlash						
Taqdimot tayyorlash						
Taqdimot va himoya						
<b>O`rt. ball</b>						
Yakuniy ball _____						

**Foydalanish mumkin:**


**1-ilova**

#### Mavzu bo'yicha nazorat savollari

Savollar	Javoblar
1. Mamlakatlarni guruhlashtirish xususiyatlarini aytib bering?	
2. Davlat tuzumi bo'yicha davlatlarni guruhlashtiring?	
3. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumining shakllanishida I-Jahon urushi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?	
4. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumining shakllanishida II-Jahon urushi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?	
5. Parlamentar respublikalarga misol keltiring.	
6. Dunyo mamlakatlarida yuzaga kelayotgan siyosiy nizolar jahon siyosiy kartasining o'zgarishiga ko'rsatayotgan ta'siri haqida qanday fikrdasiz?	

7. Federativ davlatlar jahon davlatlari orasida necha foizini tashkil etadi?	
8. Qaysi davlatlar ko'chirma kapitalizm davlatlari hisoblanadi?	

### Jahon siyosiy kartasi 5 bosqichda shakllangan



### DUNYONING RIVOJLANGAN SAKKIZLIK DAVLATLARI



## 2-ilova

### «Davra suxbati» munozarasini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma

1. So‘zga chiqqanlarni diqqat bilan bo‘lmasdan tinglang.
2. Ma‘ruzachining fikriga qo‘shilmang, o‘z fikringizni bildirishga ruxsat so‘rang.
3. Ma‘ruzachining fikriga qo‘shilsang, ko‘rib chiqilayotgan masala bo‘yicha qo‘shimcha fikr bildir.

## 3-ilova

### «Davra suxbati» muxokama qilish uchun savollar

1. Siyosiy kartadagi miqdor va sifat o‘zgarishlarining mohiyatini tushuntiring.
2. Monarxiya tuzumining afzalligi va noqulayligini izohlang.
3. Dunyoning yettilik mamlakatlari iqtisodiyotiga tizimlariga ta’rif bering.

## 4 – ilova

### Mustaqil ish uchun vazifa

#### 1-topshiriq.

1-Topshiriq: O‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanib vazifalarni bajaring:

A) Maydoni 1 mln.kv.km.dan ortiq bo‘lgan davlatlarni quyidagi jadvalda aks ettiring.

Mamlakat nomi	Davlat tuzumi	Qaysi qit`ada joylashgan	Aholisi
---------------	---------------	--------------------------	---------



B) Chegaraning katta qismi dengizga tutash mamlakatlarning 30 tasini jadvalda aks ettiring.

Mamlakat nomi	Davlat tuzumi	Maydoni	Aholisi
---------------	---------------	---------	---------

V) Dengizga tutash bo‘lmagan mamlakatlarning 30 tasini jadvalda aks ettiring.

Mamlakat nomi	Davlat tuzumi	Maydoni	Aholisi
---------------	---------------	---------	---------

G) Orollarda joylashgan mamlakatlarning 30 tasini jadvalda aks ettiring

Mamlakat nomi	Davlat tuzumi	Maydoni	Aholisi
---------------	---------------	---------	---------

### 2-topshiriq.

Dunyo siyosiy kartasini taxlil qiling. Unda maydoni yirik, o'рта va kichik davlatlar guruhini ajrating. Siyosiy kartadagi davlatlarning haqida fikr yuriting.

### Jahonning siyosiy kartasi







## XULOSA

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’limning insonparvarlik va tarbiyaviy vositalariga, barkamol avlod tarbiyasiga, jahon ta’lim tizimining ijobiy tajribalari va yutuqlariga alohida diqqat-e’tibor kuchaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxs milliy modelimizning asosiy tashkil etuvchisi sifatida belgilangan bo‘lib, unga nisbatan qo‘yiladigan talablarning amalga oshirilishi ta’lim islohatlarining natijasini belgilab beradi. O‘z navbatida mazkur xujjatda shaxsning ijodkorligi va intellektual qobiliyatlari barkamollikning asosiy vazifasi ta’lim tizimida shaxsda ijodkorlik va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali barkamolligiga erishishdan iborat. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi umumnazariy va metodik xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi umummilliy va umumdavlat miqiyosdagi vazifa bo‘lib turibdi. Mamlakatning kelajagi, avlodlarning davomiyligi, xalqlarning mavjudligi, ertangi kuni, erkin va farovon hayot qurish vazifalarini amalga oshirish ham yoshlar bilan bog‘liq.

2. Yoshlar dunyoqarashida sog‘lom e’tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlash, muammoning muhimligi o‘quvchilarni pedagogik mahoratini shakllantirishga oid ko‘plab mutaxassislar pedagoglar, psixologlar va sotsiologlar birgalikda tizimli ishlarni amalga oshirishlari lozim.

3. Geografiya fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni pedagogik mahoratini shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tadbir etilsa ahamiyatli natijalarga erishish mumkin.

4. An’anaviy va innovatsion ta’lim sinfdan tashqari faoliyat shakllarini integratsiyalash o‘quvchilarni BKM shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarni hosil qiladi. O‘quvchilarni BKM shakllantirishni yo‘lga qo‘yishda texnologik yondoshuv, ya’ni har bir bosqichni alohida-alohida loyihalab olish, erishiladigan natijalardan kelib chiqib, maqsad va vazifalarni belgilashning muhim shartidir.



Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida to'plangan materiallar, olingan natijalar, sinovdan o'tkazilgan metodik yondoshuvlardan maktab ta'limi geografiya kurslarini o'qitishda foydalanish mumkin.

**Tavsiyalar:**

➤ Geografiya fanlarini o'qitishda foydalaniladigan o'zbek tilidagi yangi avlod adabiyotlariga ehtiyoj borligi bois o'zbek tili, lotin grafikasida, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari tavsiya etilgan adabiyotlarni ishlab chiqish va yaratish zarurati mavjud.

➤ O'quv fanlari bo'yicha ta'lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg'ulot shakllari, mavzularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o'rinli bo'ladi;

➤ Geografiya ta'limi o'quv rejalarini qayta o'rganib chiqish hamda sohaga oid yangi innovatsiyalarga asoslangan holda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritib borish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947 farmoni.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T. 1997 yil.
3. Abdug'aniyev I. Geografiya darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish. -T.: «O'qituvchi», 1990.
4. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. - Navoiy., 2003.
5. Vahobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.
6. "Geografiya o'qitish metodikasi" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv uslubiy majmua.
7. Darinskiy A.V. Geografiya o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1967
8. Krilova O.V. Uroki geografii. -M.: Prosveshenie, 1990.
9. Korinskaya V.A. i dr. Metodicheskoe posobie po geografii materikov. -M.: 1987.
10. Mo'minov O. Geografiya ta'limi metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1986.
11. Sayidahmedov M.S. Didaktik jarayon loyihasining interfaol metodlari. -T.: Universitet, 2005.
12. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi, 2006.
13. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. -T.: 1997.
14. Qurboniyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -T.: Universitet, 1992.
15. Qurboniyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -Urganch, 2002.

### Internet saytlari:

1. [www.Prezident.uz](http://www.Prezident.uz)

2. [www. GOV. uz](http://www.GOV.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
5. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)
6. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)